

FYODOR DOSTOYEVSKIYNING "JINOYAT VA JAZO" ASARIDA RASKOLNIKOVNING "IKKI TOIFA ODAMLAR" NAZARIYASI: FALSAFIY- TAHLILIY YONDASHUV

Jabbarova Umida Abdimurat qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoiy odil sudlov fakulteti, 1-kurs

Jabbarovaumida177@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21884572>

Annotatsiya.

Ushbu tezisdagi Fyodor Dostoyevskiyning “Jinoyat va jazo” asaridagi obrazlar chuqur tahlil qilinadi. Asar bosh qahramoni Raskolnikovning “Ikki toifa odamlar” nazariyasini tahlil qilish, uning falsafiy mohiyatini ochib berish va zamonaviy huquqiy-axloqiy me’yorlar nuqtai nazaridan baholanadi. Asarning inson psixologiyasi, axloqiy tanlov, jinoiy javobgarlik va ma’naviy poklanish muammolarini chuqur yoritiladi.

Abstract.

This thesis provides an in-depth analysis of the characters in Fyodor Dostoevsky’s novel *Crime and Punishment*. It examines the protagonist Raskolnikov’s “Theory of Two Categories of People,” explores its philosophical essence, and evaluates it from the perspective of modern legal and moral norms. The work thoroughly addresses the problems of human psychology, moral choice, criminal responsibility, and spiritual purification.

Аннотация.

В данной тезисной работе проводится глубокий анализ образов в романе Фёдора Достоевского «Преступление и наказание». Рассматривается теория главного героя произведения Раскольникова «о двух категориях людей», раскрывается её философская сущность и даётся оценка с точки зрения современных правовых и нравственных норм. В произведении глубоко освещаются проблемы человеческой психологии, нравственного выбора, уголовной ответственности и духовного очищения.

Kirish

Fyodor Dostoyevskiyning "Jinoyat va jazo" asari chuqur falsafiy mushohadalarga boy asar bo'lib, insonning psixologiyasi hamda ruhiyatiga ta'sir qiladigan asarlardan biri hisoblanadi. Yozuvchi bu asarda turli xil obrazlarni tasvirlagan holda o'quvchida asarga nisbatan iliqlik uyg'ata olgan. Asarda yosh sobiq talabaning hayot tarzi, uning fikrlari, qarashlari yoritilgan bo'lib, asar davomida uning turli xil kechinmalariga guvoh bo'lishimiz mumkin. Asar yozuvchi tomonidan chuqur badiiy tahlil qilingan holda yozilganini obrazlardagi murakkablik, asar detallariga berilgan e'tibor hamda chuqur falsafiy qarashlardan ham bilib olishimiz mumkin. Ushbu asar yozuvchi ijodiyotining eng nodir asarlaridan biri hisoblanadi va aynan asar mukammalligining sirini bu asar yaratilishiga uzoq muddat ketganligida ifodalasak adashmagan bo'lamiz. Fyodor Dostoyevskiy kabi yozuvchilar asarlari — nafaqat o'qiladigan, balki kechiniladigan, azoblanib anglanadigan adabiyotdir. Uning qalamiga mansub har bir romaninsonni o'z vijdoni bilan yuzmayuz qiladi. Dostoyevskiy ijodining markazida bitta buyuk mavzu turadi—inson¹. Ushbu asar bosh qahramoni sifatida tasvirlangan Rodion Romanovich Raskolnikov tabiatiga ko'ra manman va har doim o'z qarashlariga ega shaxs sifatida gavdalanitirilgan. Uni har doim o'z pozitsiyasini har qanaqa

¹ JINOYAT VA JAZO ASARINING TAHLILI VA UNDAGI OBRAZLARNING
TASNIFI.Toshniyozova R.2026-y

vaziyatda himoya qilishi va o'zgalar fikriga tobe emasligi boshqa obrazlardan nafaqat ustun ko'rsatadi balki boshqa obrazlardan ajratib turadi. Buni amaliy isbotini uning "Ikki toifa odamlar" to'g'risidagi nazariyasida ham ko'rishimiz mumkin. Raskolnikovning fikriga ko'ra dunyoda odamlar ikki toifaga bo'linadi. Ular: odmi hamda favqulotta odamlar. Odmi odamlar bu bugunning egalari bo'lib, ular amalda faqat bugungi kun uchun yashashadi. Odmi odamlar dunyoga faqatgina favqulotta odamlar uchun xizmat qilish hamda hamda shunchaki nasl qoldirish sababli keladi hamda umrini jamiyat manfaatlariga foyda keltirmagan holda olib boradi deydi. Bundan tashqari, odmi odamlar bir birini manfaat ustida savalashi, nafaqat bu jarayon bir birining ustida balki o'zlarining ustida ham amalga oshirilishini ifodalaydi. Ular jamiyatda "bit" kabi o'ringa ega ekanligi, jamiyat uchun foydadan ko'ra ziyoni ko'p tegishi hamda ular amalda ijtimoiy hayot qoidalarini to'liq anglab yetmaganligini tushuntirsa, favqulotta odamlar esa kelajak sohiblari deb e'tirof etiladi. Favqulotta odamlar jamiyat qoidalarini hamda jamiyat hayotini o'z nazorati ostiga olishga intiladi va buni uddasidan ham chiqadi. Favqulotta odamlarning odmi odamlardan ajratib turadigan asosiy xususiyati ham aynan shunda. Ular o'z fikrlari hamda liderlik qobiliyatlari bilan har doim vaziyatni nazorat ostiga ololgan, va ular qonunlarni qanchalik buzishmasin ular jinoyatchi sanalmagan. Raskolnikov favqulotta odamlarga misol keltirib: Napaleon, Likurg, Muhammad (s.a.v)larni aytgan holda, shuni ham ta'kidlaydiki, ular jamiyatda islohot olib borish yo'lida va o'z tizimini olib kirish uchun joriy qoidalarini buzgan, lekin bu amalda qoidabuzarlik sifatida talqin etilmaydi, balki jamiyatning yangi me'zoni, islohotchisi sifatida qaraladi. Misol uchun, Napaleon o'z hokimiyatini qurar ekan, bu yo'lda ko'plab insonlarni jar yoqasiga olib boradi, qurbon qiladi va buning uchun o'zini zarracha ham ayblamaydi. Bundan tashqari Muhammad (s.a.v) ham o'z hokimiyatini qurishda shunday yo'ldan foydalangani haqida fikr bildirib, bu jamiyatning talabi hamda ehtiyoji sifatida ifodalaydi. Raskolnikovning fikricha jamiyatdagi noaniqliklar, adolatsizliklarni bartaraf etish uchun jamiyatga ziyon yetkazayotgan "bit"larni o'ldirish jinoyat emas, aksincha to'g'ri qaror hisoblanadi. Sababi ular bit kabi jamiyatning qonini simirgan holda yashashadi va hech bir naf keltirmaydi. Raskolnikovning falsafiy nazariyasi ostidagi asosiy g'oya jamiyatga foyda keltirmayotgan, boshqa insonlar uchun zararli bo'lgan shaxslarni tozalash orqali jamiyatda adolat o'rnatish yotadi. Xuddi shu nazariyadan kelib chiqib, o'z nazariyasini amalyotda sinab ko'rishni xohlagan holda jamiyatda foydasiz ahamiyatga ega bo'lgan sudxo'r kampir Alyona Ivonovnani o'ldirgan holda jinoyat sodir etadi. Biroq Raskolnikov o'zini jinoyatchi deb hisoblamaydi. U o'z nazariyasiga ko'ra insoniyat uchun zarali va foydasiz deb bilgan insonni o'ldiradi. Ushbu nazariya ustida Raskolnikov hamda asarda o'tkir tergovchi sifatida gavdalangan Porfiriya Petrovich muzokara olib boradi. Porfiriya Petrovich ushbu nazariya orqali Raskolnikovni tuzoqqa tushirmoqchi bo'ladi hamda o'z shubhalarini asoslab olish uchun ham Raskolnikov bilan bahs olib boradi. Porfiriya Petrovich Raskolnikov nazariyasi axloqiy me'yorlarga to'g'ri kelmasligini ta'kidlagan holda uning nazariyasini inkor qiladi. Raskolnikov o'z nazariyasini amalda sinab ko'rish uchun qilgan bu ishi axloq me'yorlari hamda jamiyat tartibiga zid bo'lsada, u bundan hech qanday naf olmaydi. Buni amaliy isbotini qotillik yuz bergan xonadondan olib ketgan buyumlarini o'z manfaati yo'lida ishlatmagani, shunchaki bir tashlandiq joyga olib borib xarsang toshni tagiga ko'mib qo'yganligida ham ko'rishimiz mumkin. Raskolnikov o'z nazariyasi ortidan o'zini favqulotta odam ekanligini, ayniqsa, Napaleonga o'xshab harakat qilishga urinadi. Lekin asar so'ngida u ham oddiy qatlamdan ekanligini, irodasi juda torligini, o'zi tanlagan hayot yo'li to'g'ri emasligini tushunib yetadi hamda o'z aybini tan olgan holda tavba qilish hamda shu yo'l bilan ruhiy poklanishga kirishadi. Raskolnikovning bu harakatlarining ortida kamtar, mehribon, kechirimli obraz bo'lmish Soniya turadi. Raskolnikov nazariyasining mohiyati axloq qoidalariga zid ravishda

insonlarni shunchaki qurbon qilishda ifodalanadi. Raskolnikov nazarida bir inson jamiyatga naf keltirmayabdimi, undan foyda yo`qmi bu jamiyatda uning yashashiga o`rin yo`q. Asarda qurbon Alyona Ivonovna ham sudxo`rlik asosida kun ko`rar, foiz belgilashda ham tovar bahosidan ancha ko`p miqdorda foiz belgilardi. Ko`plab insonlar undan norozi bo`lar, lekin yo`chilik va qashshoqlik natijasida ilojisiz qolgan insonlar o`z buyumlarini garov sifatida berishga rozi bo`lar edi. Raskolnikov nazariyasi asosida o`z fikrlarim hamda qarashlarimni ifoda etadigan bo`lsam, avvalo, har bir inson o`z umr yo`lini munosib yashab o`tishi lozim. Hayot yo`lini qay tariqa olib borish har bir insonning o`z qarashlari hamda qadryatlariga bog`liq. Inson qay tartiqa yashab o`tishidan qat`iy nazar, xoh u munosib hayot kechirsin, xoh jamiyat manfaatlariga nomunosib yashasin har bir insonning yashash huquqi bor. Bu huquqdan hech kim, hech qachon ayirmasligi lozim. Bu avvalo insonga nisbatan hurmat, uning huquqlarini tan olinishi hamda himoya qilinishini ko`zda tutadi. Insonning yashashga bo`lgan huquqi global doirada belgilab qo`yilgan. Xususan, O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25-moddasida ham har kim yashash huquqiga ega ekanligi belgilab qo`yilgan². Bundan tashqari xalqaro maydonda insonning yashash huquqi alohida kafolatlanadi va himoya qilinadi. Xususan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasidaning 3-moddasida har bir inson yashash, erkin bo`lish va shaxsiy daxlsizlik huquqlariga ega ekanligi belgilanib qo`yilgan³. Yuqoridagi Raskolnikov nazariyasidan farqli ravishda, dunyodagi barcha insonlarni teng hamda qanaqa tarzda hayot yo`lini belgilaganidan qat`iy nazar yashash huquqiga ega deb hisoblayman. Xulosa qilib aytganda, Fyodor Dostayevskiy "Jinoyat va jazo" asari insonni chuqur mulohaza yuritishga undaydi va turli xil obrazlar orqali o`quvchining ko`nglidan joy olishi bilan bir qatorda ayrim chalkashliklarni, fikrlashga undaydigan holatlarni yoritib o`tadi. Asar bosh qahramoni Rodion Romanovich Raskolnikovning "Ikki toifa insonlar" haqidagi nazariyasi chuqur falsafiy tahlilga ega bo`lib, undagi asosiy rol jamiyat manfaati qilib yoritilgan. Odmi insonlar bugunning egalar bo`lsa, favqulotta insonlar kelajak egalar bo`lishi Raskolnikov tomonidan aniq dalillar asosida tushuntirib berilgan. Asarda tergovchi sifatida gavdalangan Porfiriy Petrovich Raskolnikovni o`z nazariyasi asosida qo`lga olmoqchi bo`lib turli xil tahliliy va ruhiy savollarni bergan holda uning nazariyasiga qiziqish bildiradi. Ushbu nazariyaning mohiyati asosan jamiyat hayotidan odmi qatlamni olib tashlash, mavjud qoidalarni jamiyat manfaati yo`lida buzish mumkinligini ko`rsatadi. Shunday bo`lsada, har bir inson yashash huquqiga ega, hamda islohotlarni amalga oshirish, mavjud tartibni o`zgartirish insonlarga ziyon yetkazmasligi va ularning manfaatlariga zid bo`lmasligi darkor.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. BMT. 1948.
2. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. "O`zbekiston" Toshkent-2023.
3. Jinoyat va jazo asarining tahlili va undagi obrazlarning tasnifi. Tosjniyozova R. 2026.

² O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. "O`zbekiston" Toshkent-2023.

³ Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. BMT. 1948.